


**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2023.T.02.12 RAQAMLI ILMY KENGASH**



**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

XURAMOV LATIF YAKUBBOY O'G'LI

**GASTROENTEROLOGIK SIGNALLAR VA TIBBIY TASVIRLARNI
KOIFLET VEYVLETI ASOSIDA RAQAMLI ISHLASH ALGORITMLARI**

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2023.T.02.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

XURAMOV LATIF YAKUBBOY O'G'LI

**GASTROENTEROLOGIK SIGNALLAR VA TIBBIY TASVIRLARNI
KOIFLET VEYVLETI ASOSIDA RAQAMLI ISHLASH ALGORITMLARI**

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

A/2900

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
AXBOROT-RESURS MARKAZI

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4549 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Zayniddinov Xakimjon Nasridinovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Anarova Shabzoda Amanbayevna
texnika fanlari doktori, professor

Suvonov Olim Omonovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2023.T.02.12 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «27» avgust soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15., Tel.: (99866) 239-11-40; Faks: (99866) 239-11-40; E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (70 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15., Tel.: (99866) 239-11-40; Faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «13» avgust kuni tarqatildi.
(2024-yil «12» avgust dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi).



A.R.Axatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

X.A.Primova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda, bugungi kunda sog'liqni saqlash tashkilotining 2023-yildagi statistik ma'lumotlariga asosan oshqozon-ichak kasalliklariga chalingan bemorlarning erta o'limlar soni 28,2% ni tashkil etgan. Ushbu muamoni bartaraf etish maqsadida gastroenterologik signallarni tiklash, raqamli ishlov berish masalalarini yechishda takomillashgan algoritmlardan foydalanish va optimal yechimlarini topish uchun unumdorligi yuqori, samarali hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda jumladan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya kabi dunyoning yetakchi mamlakatlarida oshqozon va qizil o'ngach bilan bog'liq gastroezofagial buzilishlarni oldini olish, oshqozon, o'n ikki barmoqli ichakning o'tkir yoki surunkali yallig'lanishni davolash, oshqozon ichak metazit saraton kasalliklarini oldini olishda gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berishning adekvat matematik modellari asosida samarali algoritmlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha ilg'or tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, jumladan veyvlet funksiyalarni qurishda hisoblashlarning kamligi, aniqlik darajasini yuqoriligi, raqamli ishlash algoritmlarining moslashuvchanligi, optimal differensial va ekstremal xossalari, parametrlarni hisoblashning soddaligi, xatoliklarning yaxlitlashga ta'sir darajasi pastligi tufayli signallarga raqamli ishlov berish, ular asosida takomillashgan algoritmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda, bugungi kunda, inson organizmidan olinadigan signallarni raqamli ishlov berish va tahlil qilish, bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Mazkur masalalarni yechish, hamda yuqori darajadagi aniqliklarga erishish uchun gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni veyvlet usullari asosida raqamli ishlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari jadal olib borilmoqda. Bu yo'nalishda gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlashning model va algoritmlarini ishlab chiqish ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, Koiflet veyvlet usuli asosida gastroenterologik signallarni raqamli ishlov berish jarayonlarining matematik modelini takomillashtirish, hamda ularga mos masalalarni yechish uchun samarali hisoblash algoritmlari va dasturlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayonlarni matematik modellashtirish, sonli modellar va algoritmlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli texnologiyalarni ham jamiyatning barcha sohalarida keng joriy etish yuzasidan bir qator vazifalar belgilab berildi. Raqamlashtirish texnologiyalarini tibbiyot, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va boshqaruv tizimlariga joriy etish shular jumlasidandir. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida "Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini saqlash, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirishni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga

oshirish...¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlov berish hamda ulardagi shovqinlarni bartaraf etish jarayonlarini modellashtirish, Koiflét veyvlet usullari bilan gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlar sifatiga ta'sir qilish, mavjud algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash tajribalarini o'tkazish imkoniyatini beruvchi samarali algoritmlar va dasturiy ta'minotini yaratish muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" Farmoni, 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 1-maydagi PQ-140-son "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 23-fevraldagi PQ-5000-son "Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV-"Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy va yurtimiz olimlari tomonidan tibbiy signallar va tasvirlarning raqamli ishlash, ularning tabiiy va sun'iy, ichki va tashqi xalaqitlardan tozalash va qayta tiklash, asl signalni ajratib olish, to'g'ri tashxislash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunday tadqiqotlarni quyidagi olimlarning ilmiy izlanishlarida ko'rish mumkin. Raqamli signallar va tasvirlarga ishlov berishda uning nazariy va amaliy rivojlanishida statsionar bo'lmagan signallarni qayta ishlash va siqishning uzatish hamda veyvlet modellarida signallarga raqamli ishlov berish bo'yicha samarali algoritmlar bilan xorijda J.Morlet, A.Grossman, I.Meer, S.Malla, G.Lam, J.Clellan, A.Oppenxaymlar tadqiqotlar olib borgan. Veyvletlar tahlilining rivojlanishi bo'yicha A.Haar, I.Daubechi, Yu.Zavyalov, C.Chui, V.Vasilenko, S.Svinin, S.Stechkin, Yu.Subbotin, V.Miroshnichenko, A.Grebennikov, P.Shukla, O.Zenkevich, D.Singh, Dj.Fiks, U.Michael, G.Streng va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Shuningdek, O'zbekistonda M.Musayev, Sh.Fozilov, X.Zaynidinov, U.Xamdamiyov, X.Shodimetov, J.Jurayev signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berish bo'yicha tadqiqotlarga katta hissa qo'shib kelmoqda. Bugungi kunda olimlar tomonidan gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash bo'yicha tibbiyot sohaslarida turli tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Shunday bo'lsada, tibbiy signallar va tasvirlarni raqamli ishlashda optimal boshqarish, samarali filtrlash usul va algoritmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish muammosi yetarli darajada o'rganilmagan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // lex.uz/uz/docs/-5841063

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti va Muhammad-al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № BVF-Atex-2018-249 "Biometrik signallarga raqamli ishlov berish usullari va algoritmlarini ishlab chiqish" (2018-2023) va № FZ-20200930404 "Bo'lak-polinomial bazislarda signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berishning intellektual dasturiy-texnik tizimlarini yaratishning nazariy metodologik asoslari" (2021-2024) mavzularidagi ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni Koiflet veyvlet usullari asosida raqamli ishlov berish algoritmlari va dasturiy vositasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni veyvlet usullari asosida raqamli ishlash masalasining tizimli tahlil qilish;

gastroenterologik signallarni veyvlet usullari asosida raqamli ishlashning boshqaruv algoritmini ishlab chiqish;

Xaarning bo'lak chiziq, Dobeshi va Koiflet veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash asosida gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berishning modellarini ishlab chiqish;

gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash uchun Xaarning bo'lak chiziq, Dobeshi va Koiflet veyvlet usullariga asoslangan algoritmlarni ishlab chiqish;

gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni veyvlet usullari asosida raqamli ishlov berishning dasturiy vositasini yaratish va joriy qilishdan iborat.

Tadqiqotning obykti gastroenterologik signallar va laboratoriya sharoitida olingan spermogramma tibbiy tasvirlarini raqamli ishlov berish jarayoni qarab o'tilgan.

Tadqiqotning predmeti gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlov berish va ularni aniqligini oshirishning model va algoritmlari belgilab olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida matematik modellashtirish, funksional tahlil, veyvlet tahlil, vektorli va matritsali hisoblash, signallarga raqamli ishlov berish nazariyasi, sonli hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

signallarga raqamli ishlov berishda Koiflet veyvletining turli filtr darajalaridan foydalanish mumkin ekanligi hamda ushbu darajalar vaqt va sifat ko'rsatkichiga ta'sir etishi sababli uning optimal darajasini to'g'ri tanlashni hisobga olgan holda gastroenterologik signallarni Koiflet veyvleti yordamida raqamli ishlov berishning boshqaruv algoritmi ishlab chiqilgan;

insonning ovqat hazm qilish organlaridan olingan turli shovqinlarga ega gastroenterologik signallarni hamda erkak urug' unumdorligini aniqlash uchun spermogramma tasvirining xususiyatlari murakkabligini hisobga olgan holda gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarga raqamli ishlov berish uchun Xaarning bo'lak chiziq, Dobeshi va Koiflet veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash model va algoritmlari ishlab chiqilgan;

gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni Koiflet veyvlet usulida raqamli ishlov berish murakkab hisoblash jarayonlarini talab etishini hamda Malla hisoblash usuli ushbu jarayoni soddalashtirish mumkinligini hisobga olgan holda Koiflet veyvletiga Malla hisoblash usulini qo'llash asosida tez hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

tibbiy tasvirlarda ichki va tashqi omillar asosida turli xil shovqinlar qo'shilishi natijasida uning sifat ko'rsatkichi pasayishi hamda ushbu tasvirdagi obyektlarni tanib olishda xatoliklar yuz berishini hisobga olgan holda spermatozoidlarning hayotiyligini aniqlash uchun ikki o'zgaruvchili takomillashtirilgan Koiflet veyvleti asosida spermogramma tasvir sifatini oshirish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gastroenterologik signallarni raqamli ishlashda Xaarning bo'lak-chiziq, Dobeshi, Koiflet veyvlet usulini tatbiq etish natijasida signallarni raqamli ishlashning xatoligi kamaytirilgan va natijalar aniqligi oshirilgan;

gastroenterologik signallarni raqamli ishlov berish jarayonida Koiflet veyvletining filtr koeffitsiyentlarini tez hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan; Xaarning bo'lak-chiziq, Dobeshi, Koiflet veyvlet usullari asosida gastroenterologik

signallar va tibbiyot tasvirlarni raqamli ishlov berishning dasturiy vositasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan muammoning matematik jihatdan aniq ifodalanishi, muammoni o'rganish va tahlil qilish natijasida tibbiyot sohasida gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlov berish uchun qo'llaniluvchi veyvlet usullarining samaradorligiga qo'yiladigan yuqori talablar, aniqlik ko'rsatkichlari bo'yicha signallarning raqamli ishlash qoidasining qat'iyligi, olingan guvoynomalar va ishlab chiqilgan algoritmlarning amaliyotda joriy etilganligi haqidagi dalolatnomalarda tasdiqlangan natijalarning samaradorlik ko'rsatkichlari jihatdan baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida olingan natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan hisoblashning matematik modellari, usullari va algoritmlari, gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlashda Koiflet veyvlet usulining filtr koeffitsiyentlarini hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishida olingan natijalarining amaliy ahamiyati tez hisoblash algoritmi yordamida gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berish orqali undagi shovqinlarni tozalash, hamda ikki o'zgaruvchili Koiflet veyvletida spermogramma tasvirini raqamli ishlov berish orqali undagi spermatozoidlarni sonini aniqlash algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita spermatozoidlarning sonini aniqlashda vaqtni minimallashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash tadqiqoti doirasida ishlab chiqilgan algoritmlar asosida:

signallarga raqamli ishlov berishda Koiflet veyvletining turli filtr darajalaridan foydalanish mumkin ekanligi hamda ushbu darajalar vaqt va sifat ko'rsatkichiga ta'sir etishi sababli uning optimal darajasini to'g'ri tanlashni hisobga olgan holda gastroenterologik signallarni Koiflet veyvleti yordamida raqamli ishlov berishning boshqaruv algoritmi dasturiy vositasi Samarqand viloyat 1-son shahar shifoxonasida

oshqozon-ichak funksional o'zgarishini muntazam nazorat qilib borish, hamda uning diagnostik tahlil qilish maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 7-fevral 02-38/2546 -son ma'lumotnomasi). Natijada, oshqozon va ichaklardagi tuzilmalardagi o'zgarishlarni aniqlashga ketgan vaqt 1.5 barobarga kamayishi, xatolik 2-6%ga kamayishi va mehnat unumdorligini oshish imkonini bergan;

insonning ovqat hazm qilish organlaridan olingan turli shovqinlarga ega gastroenterologik signallarni hamda erkak urug' unumdorligini aniqlash uchun spermogramma tasvirining xususiyatlari murakkabligini hisobga olgan holda gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarga raqamli ishlov berish uchun Xaarining bo'lak chiziq, Dobeshi va Koiflet veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash model va algoritmlari dasturiy vositasi Samarqand davlat tibbiyot universitetining 1-klinikasida oshqozon-ichak kasalliklarini tashxislash va erkak urug' unumdorligini aniqlash maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 7-fevral 02-38/2546-son ma'lumotnomasi). Natijada, tibbiyot institutidagi foydalanib kelinayotgan an'anaviy usulga nisbatan xatoliklar 2-7%ga kamaydi, ketgan vaqt 1.5 barobarga kamaydi, mehnat unumdorligi oshishi kuzatilgan;

tasvirdagi turli xil shovqinlar qo'shilishi natijasida uning sifat ko'rsatkichi pasayishini hisobga olgan holda spermatozoidlarning hayotiyiligini aniqlash uchun ikki o'zgaruvchili Koiflet veyvlet usuli asosida spermogramma tasvir sifatini oshirish algoritmining dasturiy vositasi Samarqand shahar Yevromedik xususiy klinikasida erkak urug' unumdorligini aniqlash uchun spermogramma tasviridagi shovqinlarni bartaraf etish va spermatozoidlar hayotiyiligini aniqlash maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 7-fevral 02-38/2546-son ma'lumotnomasi). Natijada, spermogrammadagi spermatozoidlar sonini aniqlash vaqti 2.5 barobarga va xatolikni 3-5%ga kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta anjumanlarda, jumladan 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, 2 tasi xorijiy va 4 tasi Respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan. Shular asosida olingan natijalarning ishonchliliigi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan,

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berishda qo'llaniladigan veyvlet usullarining tizimli tahlili" deb nomlangan birinchi bobi, to'rt paragrafdan iborat bo'lib, unda gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berish, saqlash va qayta ishlashning tizimli tahlili hamda boshqaruv algoritmlari haqida so'z yuritilgan. Mazkur tadqiqot ishida bir o'lchovli tibbiy signal hisoblanadigan gastroenterologik signallar va ikki o'lchovli signal hisoblanadigan spermogramma tibbiy tasvirini raqamli ishlash qaralgan. Gastroenterologik signallar va spermogramma tibbiy tasvirini raqamli ishlash, tahlil qilish, kerakli xususiyatlarini ajratib olish, qayta ishlashda ham vaqt jihatdan ham aniqlik jihatdan samarali algoritmlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi..

Ushbu qo'yilgan maqsadga erishish quyidagi 1-rasmda keltirilgan qadamlar ketma-ketligi asosida amalga oshirilgan.




1-rasm. Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni veyvlet usullari asosida raqamli ishlash jarayonining qadamlari

Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni Koiflet veyvlet asosida raqamli ishlashning boshqaruv masalasining matematik qo'yilishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases}
 S_i \in R, k > 0, \tau > 0, \\
 q_i = \sum_{k=0}^{n-1} \frac{1}{\sqrt{2^k}} \int_R S_i \cdot \varphi_k(2t-k) dt + \sum_{k=0}^{n-1} \frac{1}{\sqrt{2^k}} \int_R S_i \cdot \psi_k(2t-k) dt, \\
 q_i > 0, i = \overline{0, n-1}, \\
 |y(t') - y'(q_i)| < \tau, \\
 \max(|S_i - q_i|) \rightarrow \min,
 \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda S_i – dastlabki signal, q_i – veyvlet o'zgartirish, k – boshqaruv parametri, τ – shovqun darajasining minimum qiymati. (1) ko'rinishdagi sistemaga asosan gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlashning boshqaruv algoritmi ishlab chiqildi. U quyidagi 2-rasmda keltirilgan blok-sxema ko'rinishida ifodalandi.



2-rasm. Gastroenterologik signallarni Koiflet veyvleti asosida raqamli ishlashni boshqaruv algoritmi blok-sxemasi

Ushbu algoritmnining birinchi qadamida gastroenterologik signalning dastlabki ma'lumotlari olinadi va $s[]$ massivda saqlanadi. Ikkinchi qadamda $s[]$ massiv elementlari uchun dastlabki raqamli filtrlash amalga oshiriladi hamda $SL[]$ massivda saqlanadi. Uchinchi qadamda $SL[]$ massivning elementlari uchun Koiflet veyvletining

birinchi darajali (coif1) o'zgartirish amalga oshiriladi va SL1[] massivda saqlanadi. To'rtinchi qadamda s[] va SL[] massiv elementlari uchun shovqinga nisbatan baholash (SNR) hisoblanadi hamda eng kichik SNR aniqlanadi. Beshinchi qadamda SL[] va SL1[] massiv elementlari uchun absolyut xatolik (MSE) hisoblanadi hamda max (MSE) aniqlanadi. Oltinchi qadamda agar max (MSE) min (SNR)dan kichik bo'lsa natija namoyish qilinadi aks holda yettinchi qadamda o'tadi. Yettinchi qadamda agar parchalanish darajasi (k) Koiflet veyvleti uchun mavjud parchalanishdan katta bo'lsa xatolik mavjud deb nomlanuvchi natija chiqadi, aks holda teskari aloqa orqali Koiflet veyvletining keyingi darajasini tanlash va chegara oralig'ini o'zgartirish orqali max (MSE) minimallashtiriladi.

Dissertatsiyaning "Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarini raqamli ishlashda veyvlet koefitsiyentlarini hisoblash" deb nomlangan ikkinchi bobi 4 paragrafdan iborat bo'lib, gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarini Xaar, Dobeshi va Koiflet veyvletlari asosida raqamli ishlashning matematik modellari va ularni hisoblash jarayonlari keltirilgan.

Ushbu veyvletlar asosida gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarini raqamli ishlashda filtr koefitsiyentlarini aniqlash bir muncha murakkab jarayon hamda approksimatsiya va detalizatsiya qiymatlarini hisoblash integrallash orqali amalga oshirishni talab etiladi. Tadqiqot davomida iteratsiyalar soni oshishi va hisoblash jarayoni murakkablashib ketishi aniqlandi. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida Koiflet veyvleti asosida gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarini raqamli ishlashda Malla tez hisoblash algoritmini qo'llash orqali gastroenterologik signallarni raqamli ishlashning tez hisoblash modeli ishlab chiqildi.

$$\omega_i(t) = \sqrt{2} \cdot \sum_r f(t) \cdot s_r, \quad (2)$$

$$\varpi_i(t) = \sqrt{2} \cdot \sum_r f(t) \cdot e_r, \quad (3)$$

bunda

$\omega_i(t)$ – approksimatsiya koefitsiyentlari;

$\varpi_i(t)$ – detalizatsiya koefitsiyentlari;

$f(t)$ – dastlabki signal ma'lumotlari;

s_r – past chastotali filtr koefitsiyentlari;

e_r – yuqori chastotali filtr koefitsiyentlari;

$\sqrt{2}$ - normallashtirish u o'zgarimas (constant).

(2) va (3) ko'rinishlardagi past va yuqori chastotali filtr koefitsiyentlari quyidagicha aniqlandi (4):

$$s_r = \frac{1}{\sqrt{2}} (-1)^r \sum_{n=0}^{2N-1} q_n \cdot \frac{(2N-1)!}{(n!)^2 (2N-1-2n)!} \cdot \left(\frac{(2n+1)(2N-1-2n)}{2N} \right) \quad (4)$$

bunda q_n – normallashtirish koefitsiyenti. U quyidagicha aniqlanadi (5):

$$q_n = \frac{(-1)^n}{(2n+1)^2}, \quad n=0,1,\dots,2N-1 \quad (5)$$

Yuqoridagi (5) formulani (4) ga qo'yib quyidagi (6) tenglik hosil qilindi.

$$s_r = \frac{1}{\sqrt{2}} (-1)^r \sum_{n=0}^{2N-1} \frac{(-1)^n}{(2n+1)^2} \cdot \frac{(2N-1)!}{(n!)^2 (2N-1-2n)!} \cdot \left(\frac{(2n+1)(2N-1-2n)}{2N} \right) \quad (6)$$

Ushbu (6) tenglik Koiflet veyvletining past o'tkazuvchi filtr koeffitsiyentlari, unda hosil bo'lgan filtr koeffitsiyentlarini (7) tenglikka qo'yish orqali Koiflet veyvletining yuqori o'tish filtr koeffitsiyentlari aniqlandi.

$$e_r = (-1)^r s_{N-r} \quad (7)$$

(6) va (7) ifoda ko'rinishdan aniqlangan filtr koeffitsiyentlarini (2) va (3) tenglikda qo'yish orqali Koiflet veyvleti asosida gastroenterologik signallarni raqamli ishlashning matematik modeli (8) ko'rinishda ifodalandi.

$$K_i(t) = \sum_{i=0}^N (\omega_i(t) + \varpi_i(t)), \quad t > 0 \quad (8)$$

(8) tenglik Koiflet veyvleti asosida gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berishni tez hisoblash, vaqt va xotira hajmiga nisbatan samarali ko'rsatkichga erishish imkonini beradi. Tasvirlarni qayta ishlash jarayoni ko'plab afzalliklarga ega bu jarayon xalaqatlarni va buzilishlarning paydo bo'lishi kabi muammolarni oldini olishga xizmat qiladi. $M \times N$ o'lchamdagi $f(x, y)$ diskret veyvlet o'zgartirishning masshtablash funksiyasi quyidagicha (9).

$$W_\omega(j_0, m, n) = \frac{1}{\sqrt{MN}} \sum_{x=0}^{M-1} \sum_{y=0}^{N-1} f(x, y) \omega_{j_0, m, n}(x, y) \quad (9)$$

bu yerda $W_\omega(j_0, m, n)$ - approksimatsiya koeffitsiyenti, tasvirlarning gorizontal, vertikal va diagonal qiymatlariga mos keladigan veyvlet funksiyasi quyidagicha bo'ladi:

gorizontal past tarmoqli filtrlar (10)

$$W_\omega^G(j, m, n) = \frac{1}{\sqrt{MN}} \sum_{x=0}^{M-1} \sum_{y=0}^{N-1} f(x, y) \varpi_{j, m, n}^G(x, y) \quad (10)$$

vertikal past tarmoqli filtrlar (11)

$$W_\omega^V(j, m, n) = \frac{1}{\sqrt{MN}} \sum_{x=0}^{M-1} \sum_{y=0}^{N-1} f(x, y) \varpi_{j, m, n}^V(x, y) \quad (11)$$

diagonal past tarmoqli filtrlar (12).


$$W_{\omega}^D(j, m, n) = \frac{1}{\sqrt{MN}} \sum_{x=0}^{M-1} \sum_{y=0}^{N-1} f(x, y) \varpi_{j, m, n}^D(x, y) \quad (12)$$

Yuqorida keltirilib o'tilgan mashtablash va to'liqinli funksiyalardan teskari diskret veyvlet konvertatsiya qilish orqali tasvirni qayta tiklandi (13)

$$f(x, y) = \frac{1}{\sqrt{MN}} \sum_m \sum_n W_{\omega}(j_0, m, n) \varpi_{j_0, m, n}(x, y) + \frac{1}{\sqrt{MN}} \sum_{i=G, V, D} \sum_{j=j_0}^{\infty} \sum_m \sum_n W_{\omega}^j(j, m, n) \varpi_{j, m, n}^i(x, y) \quad (13)$$

Dissertatsiyaning "Gastroentologik signallar va tibbiy tasvirlarni veyvlet usulida raqamli ishlash algoritmlari" deb nomlangan uchinchi bobi 4 paragrafdan iborat bo'lib ushbu bobda gastroentologik signallar va tibbiyot tasvirlarni Xaar, Dobeshi, Koiflet veyvlet usullarida raqamli ishlov berish algoritmlari ishlab chiqilgan hamda algoritmning absolyut xatoliklari baholangan.

Xaar veyvleti asosida gastroentologik signallarni raqamli ishlash algoritmi 3-rasmda keltirilgan blok-sxema orqali ifodalanadi.



3-rasm. Xaar veyvlet usulida EGEG signaliga raqamli ishlov berish algoritmining blok sxemasi

Gastroenterologik signallarni Xaar veyvlet usulida approksimatsiyalash dastlabki signalga nisbatan amalga oshirildi 1-jadvalda baholash natijalari keltirilgan.

1-jadval.

Xaar veyvlet usulida Gastroenterologik signallarni approksimatsiyalash natijalari

Gastroenterologik signallar	Max(Absolyut xatolik)	Max(Nisbiy xatolik)
Xaar	0,944	18,47

EGEG signallarni Dobeshi veyvleti asosida raqamli ishlash quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi.

Kiruvchi parametrlar $S(t), a, b, H$, chiquvchi parametr $D[f]$.

1-qadam: $S(t)$ EGEG signalning dastlabki qiymati kiritilsin;

2-qadam: $k=0$ deb olinsin;

3-qadam: $[a, b]$ oraliq chegaralari va H qadam kiritilsin;

4-qadam: $n = \frac{b-a}{H}$ qadamlar soni aniqlansin;

5-qadam: $k = k+1$ ning qiymati oshirilsin;

6-qadam: h_k filtr koeffitsiyenti hisoblansin;

7-qadam: g_k filtr koeffitsiyenti hisoblansin;

8-qadam: $\varphi_k(t) = \sqrt{2} \sum_k^n h_k \varphi(2t-k)$ masshtablash funksiyasi hisoblansin;

9-qadam: $\psi_k(t) = \sqrt{2} \sum_k^n g_k \varphi(2t-k)$ veyvlet funksiyasi hisoblansin;

10-qadam: $a_k = \langle f, \varphi_k \rangle$ approksimatsiyalash koeffitsiyentlari hisoblansin;

11-qadam: $d_k = \langle f, \psi_k \rangle$ detalizatsiya koeffitsiyentlari hisoblansin;

12-qadam: $D_l = \sum_{k=0}^n a_k + \sum_{k=0}^n d_k$ veyvlet koeffitsiyentlari hisoblansin;

13-qadam: tamom.

Gastroenterologik signallarni Dobeshi veyvlet usulida approksimatsiyalash dastlabki signalga nisbatan amalga oshirildi 2-jadvalda baholash natijalari keltirilgan.


2-jadval.

Dobeshi veyvlet usulida Gastroenterologik signallarni approksimatsiyalash natijalari

Gastroenterologik signallar	Max(Absolyut xatolik)	Max(Nisbiy xatolik)
Dobeshi	0,635	18,66%


Baholash natijasidan ko'rish mumkinki. Dobeshi veyvlet asosida gastroenterologik signallarni raqamli ishlash Xaar veyvletiga nisbatan aniqlik ko'rsatkichi yaxshi ekanligini. Biroq tadqiqot ishida taklif etilayotgan Koiflet veyvleti Dobeshi veyvleti asosida qurilgan bo'lib, Dobeshi veyvletiga nisbatan masshtablash funksiyasini nolli momentlari hisobga olingan va silliqlik yuqori ammo hisoblashda

iteratsalar ko'payib ketishi vaqt va xotradan ko'p joy egalaydi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida tadqiqot ishida Mala tez hisoblash algoritmini qo'llash orqali Koiflet veyvletining tez hisoblash algoritmi ishlab chiqildi. EGEG signallarni Koiflet veyvleti asosida raqamli ishlashning tez hisoblash algoritmi quyidagi 4-rasmda keltirilgan blok-sxema orqali ifodalanadi.



4-rasm. Koiflet veyvlet usulida gastroenterologik signallarga raqamli ishlov berish algoritmining blok-sxemasi

Koiflet veyvleti asosida raqamli ishlashning tez hisoblash algoritmi asosida gastroenterologik signalarning approximations natijasi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. EGEG signalni Koiflet veyvlet usulida approximations natijasi


Keltirilgan matematik modellar va ishlab chiqilgan algoritmlar asosida gastroenterologik signalarni Koiflet veyvletining tez hisoblash algoritmi asosida aproksimatsiyalashning absolyut, nisbiy xatoliklari baholandi. Natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Gastroenterologik signalarni veyvlet usullari asosida raqamli ishlash algoritmi natijalari

Gastroenterologik signallar	Baholash usullari	
	Max(Absolyut xatolik)	Max(Nisbiy xatolik)
Dobeshi	0,0469	12,487%

Koiflet veyvleti asosida tibbiy tasvirlarni raqamli ishlashning funksional sxemasi 6- rasmda keltirilgan.



6-rasm. Tasvirlarni Koiflet veyvlet usulidagi raqamli ishlashning funksional sxemasi

TOSHKENT AXBOROT
 TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI 17
 AXBOROT-RESURS MARKAZI

Koiflet veyvleti asosida tasvirlarga raqamli ishlov berish uchun ishlab chiqilgan algoritmnning vaqt va xotra hajmi bo'yicha baholash 4-jadvalda keltirildi.

4-jadval.


Koiflet veyvleti asosida tasvirlarga raqamli ishlov berishni baholash natijasi

Dastlabki parchalanish		Tasvir hajmi
Dastlabki tasvir o'lchami N=303, M=294	Tasvir elementlar soni K=89082	
16,4 KB		
Qayta ishlangan tasvir	Noldan farqli qiymat	Nol va nolga yaqin qiymatlar
	73214	15868
Natija	31KB	

Dissertatsiyaning "Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash dasturiy vositasining modullari" deb nomlanuvchi bobi 4 ta paragrafdan iborat bo'lib, ushbu bobda olib borilgan tadqiqotlar jarayonida gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarini raqamli ishlash dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur quyidagi modullardan iborat:

1. Xaar, Dobeshi, Koiflet veyvlet usullarida gastroenterologik signallari raqamli ishlov berish dasturi;
2. Koiflet veyvletida tibbiy tasvirlarga raqamli ishlov berish dasturi.

Gastroenterologik signallar va spermagramma tasvirini raqamli ishlash dasturiy vositasining funksional sxemasi 7- rasmda keltirilgan.



7-rasm. EGEG signalini va spermagramma tasvirini raqamli ishlashning funksional sxemasi


Ushbu funksional sxema yordamida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Samarqand tibbiyot institutining 1-klinikasida EGEg signali va spermagramma tasvirlarini raqamli ishlash orqali bemorlarga tashxis qo'yish uchun dastlabki ma'lumotlarni shifokorga beradi. 5-jadvalda tajriba sinov natijalari keltirilgan.

5-jadval.

Spermatazoidlar soni aniqlash ko'rsatkichi bo'yicha baholash

Spermatazoidlar soni 167 ta			
	Tiriklar soni	Xatolik baholanishi $\frac{ABS(A) - B}{B} \cdot 100\%$	Samaradorlik
Ananaviy usulda	189	88,36%	3,19%
Dastur natijasi	154	91,56%	
Spermatazoidlar soni 101 ta			
Ananaviy usulda	129	78,29%	2,9%
Dastur natijasi	85	81,17%	
Spermatazoidlar soni 127 ta			
Ananaviy usulda	142	89,43%	5,6%
Dastur natijasi	121	95,04%	

Xaarning bo'lak chiziq, Dobeshi va Koiflet veyvlet usullari asosida signallarga raqamli ishlov berish dasturining interfeysi 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. Xaarning bo'lak chiziq, Dobeshi va Koiflet veyvletlarida tasvirlarga raqamli ishlov berish dasturining interfeysi

XULOSA

“Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni Koiflet veyvleti asosida raqamli ishlash algoritmlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar doirasida quyidagi natijalar va xulosalar taqdim etildi:

1. Signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash jarayonini hamda ularni boshqarish yondashuvlari tahlili asosida vaqt, iqtisodiy jihatdan samarali yondashuvlar yetarli emasligi asoslandi.

2. Raqamli filtrlar va veyvlet usullaridan foydalanib gastroenterologik signallar hamda tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash yondashuvining samaradorliklari aniqlandi. Natijada, Xaarning, Dobeshi, Koiflet veyvlet usullari tanlab olindi.

3. Tadqiqot masalasini qo‘yilishi belgilab olinib muammoni hal etishning funksional modeli taklif etildi. Gastroenterologik signallarni Koiflet veyvleti asosida raqamli ishlash jarayoni tadqiq qilinib, natijada, Koiflet veyvleti asosida gastroenterologik signallarni raqamli ishlashning boshqaruv algoritmi ishlab chiqildi.

4. Xaar, Dobeshi va Koiflet veyvletini qurish masalasi tadqiq qilindi. Natijada, gastroenterologik signallarni raqamli ishlash uchun Xaar, Dobeshi va Koiflet veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash jarayoni amalga oshirildi.

5. Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni qayta ishlash uchun Xaar, Dobeshi va Koiflet veyvlet usullarining matematik modellari taklif etildi. Natijada, gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni qayta tiklashdagi xatoliklarini baholash jarayoni amalga oshirildi.

6. Xaarning bo‘lak-chiziq, Dobeshi, Koiflet veyvlet usullari yordamida EGEG signalini raqamli ishlash algoritmlari ishlab chiqildi va natijani grafik tasviri keltirildi hamda algoritmlar vaqt va xotira hajmi bo‘yicha baholandi.

7. Ikki o‘lchovli signallarni raqamli ishlashda Koiflet veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash algoritmi ishlab chiqildi va natijalar olindi. Natijada, raqamli ishlanayotgan tasvirning approksimatsiya va detalizatsiya koeffitsiyentlari aniqlandi.

8. Gastroenterologik signallar va tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash algoritmlari asosida dasturiy majmuaning strukturasi ishlab chiqildi. Dasturiy majmuani strukturasi asosida dasturiy modullar yaratildi.

9. Ikki o‘zgaruvchili Koiflet veyvlet usuli asosida tibbiy tasvirlarni raqamli ishlash dasturi ishlab chiqildi. Dastur yordamida tibbiy tasvirlardagi spermogrammadagi spermatozoidlar soni aniqlash amaliyotga tadbiq qilindi. Natijada, spermogrammadagi spermatozoidlar sonini aniqlash vaqti 2,5 barobarga va xatolik 3-5%ga kamayishga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РъD.03/29.12.2023.Т.02.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫЙ СТПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

ХУРАМОВ ЛАТИФ ЯКУББОЙ ЎҒЛИ

**АЛГОРИТМЫ ЦИФРОВОЙ ОБРАБОТКИ
ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ СИГНАЛОВ И МЕДИЦИНСКИХ
ИЗОБРАЖЕНИЙ НА ОСНОВЕ ВЕЙВЛЕТА КОЙФЛЕТ**

05.01.02 – Системный анализ, управление и обработка информации

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РъD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером В2024. 1. PhD/Т4549.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.samdu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).


Научный руководитель:	Зайнидинов Хакимжон Насриддинович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Аярова Шахзода Амапбаевна доктор технических наук, профессор Сувонов Олим Омонович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный транспортный университет


Защита диссертации состоится «22» август 2024 г. в 14:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/29.12.2023.Т.02.12 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел: (99866) 239-11-40. Факс: (99866) 239-11-40; E-mail: devonxona@samdu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (регистрационный номер № 70). (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел: (99866) 239-11-40; Факс: (99866) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан «13» августа 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 1 от «12» август 2024 года).




А.Р.Ахатов
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор


Ф.М.Назаров
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии по
техническим наукам, доцент


Х.А.Примова
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор технических наук

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, в 2023 году, по статистическим данным Всемирной организации здравоохранения, доля ранних смертей среди пациентов с заболеваниями желудочно-кишечного тракта составила 28,2%. Для решения данной проблемы уделяется особое внимание использованию усовершенствованных алгоритмов и нахождению оптимальных решений для восстановления гастроэнтерологических сигналов и их цифровой обработки. В настоящее время в развитых странах, таких как США, Германия, Франция, Великобритания, Япония, Австралия, Южная Корея, Китай, Индия и Россия, проводятся передовые исследования по созданию эффективных алгоритмов на основе адекватных математических моделей для цифровой обработки гастроэнтерологических сигналов. Это включает в себя предотвращение гастроэзофагеальных нарушений, связанных с желудком и пищеводом, лечение острых или хронических воспалений желудка и двенадцатиперстной кишки, а также профилактику метастатического рака желудочно-кишечного тракта. В этом направлении, благодаря низкой вычислительной сложности, высокой точности, гибкости цифровых алгоритмов, оптимальным дифференциальным и экстремальным свойствам, а также простоте расчета параметров и низкому влиянию ошибок округления, особое внимание уделяется цифровой обработке сигналов и созданию усовершенствованных алгоритмов на основе вейвлет-функций.

В мире, на сегодняшний день, цифровая обработка и анализ сигналов, получаемых от человеческого организма, являются актуальными проблемами. Для решения этих задач и достижения высокой точности активно ведутся научные исследования по цифровой обработке гастроэнтерологических сигналов и медицинских изображений с использованием вейвлет-методов. В этом направлении разработка моделей и алгоритмов цифровой обработки гастроэнтерологических сигналов и медицинских изображений является приоритетной. Кроме того, важными задачами считаются усовершенствование математической модели цифровой обработки гастроэнтерологических сигналов на основе вейвлет-функции Коифлета, а также разработка эффективных вычислительных алгоритмов и программ для решения соответствующих задач.

В нашей республике уделяется особое внимание математическому моделированию сложных процессов, связанных с цифровой обработкой гастроэнтерологических сигналов и медицинских изображений, разработке численных моделей и алгоритмов, а также их применению на практике. В частности, в стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы были определены задачи по широкому внедрению цифровых технологий во все сферы общества. Внедрение цифровых технологий в медицину, экономику, социальную сферу и системы управления входит в число этих задач. В частности, в указе Президента Республики Узбекистан определены важные задачи по «Развитию системы здравоохранения, охране здоровья населения, цифровизации сферы здравоохранения и реализации стратегии на 2022-2026 годы...»². В рамках выполнения этих задач важной задачей является

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №ПФ-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» // lex.uz/uz/docs/-5841063

моделирование процессов цифровой обработки гастроэнтерологических сигналов и медицинских изображений и устранения шума в них, воздействие вейвлет-методов Конфлета на качество гастроэнтерологических сигналов и медицинских изображений, совершенствование существующих алгоритмов и проведение вычислительных экспериментов, создание эффективных алгоритмов и программного обеспечения.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года № УП-6079 «Цифровой Узбекистан-2030», Постановлением от 25 мая 2021 года года ПП-5124 «О дополнительных мерах по комплексному развитию сферы здравоохранения», Постановлением от 1 мая 2023 года № ПП-140 «О дополнительных мерах по цифровизации системы здравоохранения», Постановлением от 23 февраля 2021 года № ПП-5000 «О мерах по эффективной организации цифровизации в сфере здравоохранения» и другими нормативно-правовыми актами, касающимися данной деятельности.

